

**BOSHLANG’ICH SINFLARDA “OT” MAVZUSINI O’RGATISH
METODIKASINI O’RGANISH VA TAHLIL QILISH**

Tog’ayeva Sevinch Komiljon qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi

sevinchtogayeva0905@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ot so’z turkumi haqida umumiy ma’lumot, boshlang’ich sinflarda “Ot” mavzusini o’rganish, boshlang’ich sinflarda “Ot” mavzusini o’rgatishda qo’llaniladigan didaktik o’yinlar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, “Ot” mavzusini o’rgatish metodikasi, boshlang’ich sinflarda “Ot” mavzusini o’rgatish bosqichlari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: ot, metodika, boshlang’ich sinf, birlik otlar, ko’plik otlar, didaktik o’yin, metod.

**STUDY AND ANALYSIS OF THE METHODOLOGY OF
TEACHING THE SUBJECT "NOUN" IN PRIMARY GRADES**

Abstract. This article provides general information about the noun phrase, learning the topic "Noun" in elementary grades, and didactic games used in teaching the topic "Noun" in elementary grades. Also, the method of teaching the topic "Noun" and the stages of teaching the topic "Noun" in primary grades are discussed.

Key words: noun, methodology, elementary school, singular nouns, plural nouns, didactic game, method.

**ИЗУЧЕНИЕ И АНАЛИЗ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА
«ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ» В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

Абстрактный. В данной статье представлены общие сведения о именной группе, изучении темы «Имя существительное» в начальных классах, а также дидактические игры, используемые при преподавании темы «Имя существительное» в младших классах. Также рассмотрена методика преподавания темы «Имя существительное» и этапы преподавания темы «Имя существительное» в начальных классах.

Ключевые слова: словарный запас, существительное, методика, начальная школа, существительные в единственном числе, существительные во множественном числе, дидактическая игра, метод.

KIRISH

Ta’lim davlat va jamiyat rivoji uchun muhim omil hisoblanadi desam mubolag’ a bo’lmaydi. Ta’lim insonni har tomonlama o’stirishda, fikrlashni rivojlantirishda va zamon bilan hamnafas bo’lishda, zamon talablariga mos bo’lib yetishishda muhim ahamiyatga ega. Ta’limning chuqur egallanishi ijtimoiy adolatni ta’minlashda yordam beradi, turli xil yangi kashfiyotlarni yaratishga imkon beradi. Shuningdek, insonni haqiqiy inson bo’lib voyaga yetish, o’zligini anglashi uchun poydevor vazifasini o’taydi.

Ta’limning dolzarbliji, uning hayotimizda tutgan o’rni haqida ko’plam olim va mutaffakkirlar ham o’z fikr va munosabatlarini ilmiy jihatdan keltirib o’tishgan. Masalan, AQSHning 3-Prezidenti Thomas Jeffersonning ta’kidlashicha: “Ta’lim olinmagan aql konda yotgan olmos kabi foydalidir”. Bu fikrlarga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo’lsak, ta’lim olmagan inson, insonning aqli kondagi olmosga o’xshatilgan. Ya’ni o’z ustida ishlamagn, ta’lim olishda, izlanishda davom etmagan inson qanchalik qimmatbaho bo’lishiga qaramay foydasiz bo’lgan kondagi olmosga qiyoslangan. Darhaqiqat, isnon umri davomida hech qachon izlanishdan, ilm olishdan to’xtamasligi, ta’limni uzluksiz davom ettirishi darkor.

Biz ta’lim, bilim, kasbiy mahorat inson taqdirda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan asrga kirmoqdamiz. Bilimlarsiz, aytish kerakki, hammasi qiyinlashib boradi, shunchaki ishlashning va boshqalarga foya keltirishning imkoni bo’lmay qoladi. Chunki jismoniy mehnatni mashina va robotlar zimmasiga oladi. Hattoki hisobkitoblar va chizmalar, hisobotlar, rejalashtirish ham kompyuterlar tomonidan amalga oshiriladi. Inson esa yangi g‘oyalarni kiritadi, mashina fikrlay olmaydigan narsalar ustida bosh qotiradi. Buning uchun esa insonning ziyoliligi, yangilik yarata olishi va albatta, mashina o’rnini bosa olmaydigan ma‘naviy ma‘suliyligi kerak bo‘ladi. Hozirgi asrda oddiy narsa bo’lgan etika ilm-fan asrida qiyinchiliklar tug‘ilgan sohaga aylanadi. Bu tushunarli holat. Demak, inson oldida qiyin va og‘ir vazifa – shunchaki odam emas, ilm-fan odami bo’lish turadi, mashinalar va robotlar asrida ro‘y berayotgan voqealarga ma‘naviy jihatdan javob beradigan inson. Umumiy ta’lim kelajak odamini, ijodkor, yangilik yaratuvchi va barcha yangi yaratilgan narsalar uchun ma‘naviy ma‘suliyatni o‘z bo‘yniga oladigan insonni tarbiya qilishi mumkin.

Shu o’rinda mashxur rus olimi, akademik Dmitriy Lixachyovning “Yaxshi va go’zal narsalar haqida xatlar” kitobidan olingan maslahat va hayotiy tajribalarga asoslangan fikrlardan iborat bo’lgan “26-xat”dan keltirilgan parchasiga nazar tashlasak. Xat quyidagicha nomlanadi: “Bilim olishni o’rganing”. Ushbu xatda qimmatli va mutolaachiga chinakam ta’sir eta oladigan jumlalar keltiriladi: “Bilim olish – mana nima kerak yoshlarga. Har doim bilim olish darkor. Katta-katta olimlar umrining oxirigacha nafaqat o‘qitgan, balki o‘qigan ham. Bilim olishdan to’xtading – o‘qita olmaysan ham. Chunki bilimlar o’sib va qiyinlashib boradi. Aynan yoshlikda,

bolalikda, o’smirlik davrlarida inson zehni o’tkir bo‘ladi. Aynan shu paytda tillarni o‘rganishga, matematikaga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga va ma‘naviy jihatdan rivojlantiradigan va uni stimullaydigan estetik rivojlanishga moyillik yuqori bo‘ladi.

Vaqtni behudaga, ba‘zan eng og‘ir ishdan ham ko‘proq charchatadigan “dam olishlarga” sarflamaslikka odatlaning, ongingizni tumanli, ahmoqona, maqsadsiz “ma‘lumot” bilan to‘ldirmang. Faqat yoshligingizda orttirishingiz mumkin bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar uchun o‘zingizni asrang.

Shu yerda yosh o‘quvchimning og‘ir xo‘rsinishini eshityapman: “Biz yoshlar uchun qanaqa zerikarli hayotni taklif qilyapsiz?! Faqat o‘qish. Dam olish, o‘yin-kulguchi? Endi biz xursandchilik ham qilmaylikmi?” - Yo‘g‘-a. Bilim va ko‘nikmalarni orttirish – bu ham sport. Agar u bizga quvonch bermasa, bilim olish, o‘qish juda ham qiyin mashg‘ulot. Dam olish va o‘yin-kulguning, ermakning bizni nimagadir o‘rgatadigan shakllarini topish kerak. Bilim olish yoqmasachi? Bo‘lishi mumkin emas. Demak siz bolakayga, qizaloqqa quvonch keltiradigan bilimlar eshigini hali ochmagansiz.

Yosh bolakayga qarang – qanday xursandchilik bilan yurishni, gapishtishni, turli mexanizmlarni chuqalashni (bolalar), qo‘g‘irchoqqa enagalik qilishni (qizlar) boshlaydi. Mana shu quvonchni yangi bilimlarni egallashda davom ettiring. Bu ko‘p jihatdan o‘zingizga bog‘liq. Bilim olishni yoqtirmayman deb ont ichmang! Maktabda o‘qitiladigan hamma fanlarni seving. Agar boshqalarga yoqqan bo‘lsa, nega sizga yoqmasin? Qimmatbaho kitoblarni o‘qing, xom asarlarni emas. Tarixni va adabiyotni o‘rganing. Bularni ziyoli odam biliши shart. Aynan ular insonga ma‘naviy va estetik dunyoqarash beradi, dunyonи qiziqarli qiladi, malaka va quvonch hadya qiladi. Qaysidir fandan nimadir yoqmasa – unda quvonch manbaini topishga harakat qiling – yangi narsani o‘zlashtirish quvonchini.”

Yuqorida keltirilgan parchani sinchkovlik bilan o‘qir ekanmiz, bilim olsih qanchalik muhimligi, ta’lim rivojlanishi uchun nafaqat ta’lim oluvchi, balki ta’lim beruvchi ham izlanishdan, ilm olishdan to’xtamasligi lozimligini anglab yetishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili: Ushbu maqolada K. Qosimov, S. Matchonov, X. G’ulomovalarning “Ona tili o‘qitish metodikasi” boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik kitobi, Dmitriy Lixachyovning “Yaxshi va go’zal narsalar haqida xatlar” kitobi va mavzuga oid maqolalar keltirilgan internet saytlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Mustaqil so’z turkumiga mansub bo’gan ot so’z turkumi shaxs va narsaning nomini bildirib, kim?, nima?, qayer? so’roqlariga javob bo’ladi va u 3xil asosiy grammatik kategoriyalarga ega: 1. Egalik. 2. Kelishik. 3. Son kategoriysi.

Egalik kategoriyasi tegishlilik, qarshlilik, egalik ma’nolarini anglatadi. Misol: daftaram, kitobing, guli va hokazo.

Kelishik kategoriyasi gapda so’zlarning bog’lanishi uchun xizmat qiladi. o’zbek tilida 6ta kelishik mavjud va ularning o’z qo’shimchalari bor:

1. Bosh kelishik qo’shimcha olmaydi;
2. Qaratqich kelishik – ning;
3. Tushum kelishik – ni;
4. Jo’nalish kelishik – ga, -ka, -qa;
5. O’rin-payt kelishik – da;
6. Chiqish kelishik – dan.

Masalan: uy, **uyning** eshigi, **uyni** tozaladi, **uyga** ketdi, **uyda** qoldi, **bozordan** oldi.

Son kategoriyasida otlar birlik otlar va ko’plik otlarga bo’linadi. Ko’plik otlar birlik otlarga –lar qo’shimchasini qo’shish orqali hosil qilinadi. Ikki va undan ortiq miqdordagi otlarga –lar qo’shimchasini qo’shib, ko’plik ot yasaladi: kitob – kitoblar, gul – gullar, qalam – qalamlar, haydovchi – haydovchilar. Shuni ham yodda tutish lozimki, -lar qo’shimchasi ko’plik ma’nosidan boshqa kichraytirish, erkalash, kinoya, hurmat kabi ma’nolarni ham ifodalab keladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ot so’z turkumining asosiy ma’lumotlari hisoblanib, boshlang’ich sinfda bu ma’lumotlardan qisman foydalaniladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ta’lim berish ancha mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim davrida o’quvchilar o’z ona tilida savodini chiqarishi, harflarni tanishi, o’qiy olishi va yozish ko’nikmalarini egallashi aniq maqsadga yo’naltirilgan jarayon desam adashmagan bo’laman. Maqsad bitta – uzuksiz ta’limni davom ettirish uchun poydevor o’rnatish, o’quvchilar kelajagi uchun zarur bo’lgan tamal toshini qo’yish.

Boshlang’ich ta’lim davrining ilk bosqichlarida ya’ni 1-sinfda savod o’rgatish darslari o’tilib, undagi bilimlar egallangandan so’ng, bosqichma-bosqich ona tili darslari o’tila boshlaydi. Ona tili darslarida asta-sekinlik bilan yangi ma’lumotlar, turli xil mavzular rejaga asoslangan holda o’rgatib boriladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ona tilini o’rgatizshda uzviylikdan foydalaniladi. Boshlang’ich sinflarda ot ni o’rganish turli vazifalar asosida amalga oshiriladi. Ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. “Ot” so’z turkumi haqida grammatick tushunchalarni shakllantirish;
2. O’quvchilarda shax otlari va narsa-buyum otlarini farqlash ko’nikmasini hosil qilish;
3. Atoqli otlarni bosh harf bilan yozish qoidalarini anglash;
4. Otlarning birlikda va ko’plikda qo’llanilishini o’rganish;
5. Otlarda egalik qo’shimchalarni to’g’ri qo’llashni o’rganish;

6. Otlarda kelishik qo’shimchalarining qo’shilishi bilan bog’liq bilimlarni shakllantirish;

7. O’quvchilar yoshiga mos ravishda otlarning sinonimlari bilan bosqichma-bosqich tanishib borish va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan vazifalar alohida emas, balki bir-biri bilan bog’liq holda bajarib boriladi. Otni o’rganishga tayyorlov savod o’rgatish davrida amalga oshiriladi ya’ni o’quvchilarga meva, gul, sabzavot, kasblar kabi otlarning leksik ma’nosи o’rganiladi, ular haqida hayotiy tushuncha paydo bo’ladi. Aynan shu davrda otlarni guruhlash ko’nikmalari shakllantiriladi. 3-sinfga kelib, otga atama beriladi, birlik va ko’plik otlarga ajratish ko’nikmalari shakllantiriladi. 4-sinfga kelib o’quvchilar otning kelishiklar, egalik qo’shimchalari bilan qo’llanilishi va ularni to’g’ri yozish qoidalari kabi bilimlar o’rgatiladi.

Boshlang’ich sinflarda ot so’z turkumini o’rganish metodik yondashuvni talab etadi. Pedagoglar dars vaqtida turli metodlar va usullarni qo’llash orqali o’quvchilarni darsga qiziqtirishlari vaegallangan bilimlarni mustahkamlashlari mumkin. Quyida “Ot” mavzusini o’rganish va mavzuni mustahkamlash uchun boshlang’ich sinflarda qo’llash mumkin bo’lgan bir qancha metod va usullar, didaktik o’yinlar bilan tanishamiz.

“Sirli zanjir” didaktik o’yini

O’yinning maqsadi: o’quvchilarni diqqatni jamlashga undash, tezkorlikka chorlash, bir turga mansub otlarni o’rgatish va o’rangan bilimlarni takrorlash.

O’yinning tashkil etilishi: bu didaktik o’yin asosan boshlang’ich sinfning 1-2-sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan. Dastlab o’quvchilar 2 yoki 3 guruhga bo’linib olishadi, so’ng har bir guruh o’zi uchun bir turga mansub bo’lgan otlarni tanlaydi. Masalan: o’quv qurollari, uy jihozlari va hokazo. Guruhga bo’lingan o’quvchilar birin-ketin o’zi tanlagan turga mansub otlarni aytadi va zanjir tariqasida davom etadi. Qaysi guruh otlarni aytishdan to’xtab qolsa, zanjir uziladi va o’yin tugallanadi.

“Oltin olma” metodi

Metodning maqsadi: o’quvchilarda ot mavzusiga doir bilimlarni shakllantirish, ziyraklikni oshirish, fikrlashga undash.

Kerakli jihozlar: 2qismga bo’lingan olma ko’rinishidagi kartochkalar, savatchalar.

Metodning tashkil etilishi: ushbu metod boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan bo’lib, dastlab 2 nafar o’quvchi doska oldiga turib oladi. Doska oldida parta ustiga qismlarga ajratilgan olma ko’rinishidagi kartochkalarga yopishtirilgan bo’ginlar va savatchalar qo’yiladi. Doska oldida turgan o’quvchilar bo’g’inlardan otga oid so’z yasaydilar va olmani birlashtirib savatga soladilar. Savatdagi olmalarga “oltin olma” nomi beriladi. Ma’lum vaqt davomida qaysi o’quvchi ko’p “oltin olma” yig’sa, shu o’quvchi g’olib bo’ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinflarda ot so’z turkumini o’rgatish izchillik va uzviylik bilan davom etadigan, yaxlit holda o’rgatiladigan jarayon hisoblanadi. O’quvchilarga qancha ko’p so’zlarni ma’nosini tanishtirilsa, ularning lug’at boyligini oshirilsa, o’quvchilarga boshqa mavzularni ham o’rgatish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1-sinf ona tili darsligi 2023-yil.
2. 2-sinf ona tili darsligi 2023-yil.
3. 3-sinf ona tili darsligi 2023-yil.
4. 4-sinf ona tili darsligi 2023-yil.
5. D. Lixachyov “Yaxshi va go’zal narsalar haqida xatlar” 1985-yil (tarjimasidan foydalanildi).
6. M. Abdulazizov “O’zbek tilida ot so’z turkumi” T.: “O’zbekiston”, 2015-yil.
7. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G’ulomova “Ona tili o’qitish metodikasi” T.: “Nosir ”, 2022-yil.
8. Daryo.uz internet sayti
9. www.natlib.uz internet kutubxona
10. www.ziyonet.uz materiallari
11. www.pedagog.uz materiallari